

“LISON UT-TAYR” DOSTONI MUQADDIMASIDAGI BILISH NAZARIYASI VA ONTOLOGIK QARASHLAR TAHLILI

AZAMATOVA Sevinch Valijon qizi

TDSHU Sharq falsafasi va madaniyati yo'nalishi

Ilmiy rahbar: PhD. Sulaymonov J.B

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonining I bob qismidagi ontologik masalalar va bilish nazariyasiga oid qarashlar tahlil qilinadi. Haqiqatni bilish mumkinmi agar mumkin bo'lsa qay tarzda bu jarayon amalga oshiriladi, tabiiy muhitdagi muvozanatlar haqida muxtasar so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Irfoniy doston, dialektika, muttahid, semurg', “to'qqiz falak”, ekosistema vahdat ul-vujud.*

ABSTRACT:

This article analyzes the ontological issues and views on the theory of knowledge in Chapter I of Alisher Navoi's epic poem "Lison ut-tayr". Is it possible to know the truth, and if so, how this process is carried out, and briefly discusses the balances in the natural environment.

Keywords: *Irrfan epic, dialectics, muttahid, semurg', "nine heavens", ecosystem unity of being.*

KIRISH

“Lison ut-Tayr” Alisher Navoiy tomonidan umrining so'nggi pallasida, ya'ni 1499-yilda yozilgan yirik irfoniy doston hisoblanib, hajman 193 bob, 3666 baytdan iborat. ¹ “Lison ut-tayr” murakkab irfoniy doston bo'lib, unda Navoiy majoziy obrazlar va ularning ramzli sarguzashtlari orqali obyektiv borliq va ilohiyot haqidagi qarashlarini bayon etadi, shu bilan birga dostonda real hayot lavhalari, kishilarning xatti-harakati, fe'l-atvoridagi ijobiy va salbiy xususiyatlar ham tasvirlangan.

Doston an'anaga muvofiq muqaddimiy boblar bilan boshlanadi. Muqaddima 13 bobdan iborat bo'lib, uning dastlabki bobi Yaratuvchiga hamd bilan boshlanadi. ² Umuman olganda sharq musulmon adabiyotidagi ushbu an'anani biz Navoiyning deyarli barcha dostonlarida uchratishimiz mumkin. Dastlab Xudoga shukronalik ya'ni hamd va Payg'ambarga bag'ishlangan naat qismlari asarning boshlanish muqaddimasining ajralmas qismi hisoblanadi.

¹ Sirojiddinov, Sh., Yusupova, D., Davlatov, O. Navoiyshunoslik (1-litob). Toshkent: “Tamaddun”, 2018, b.169

² O'sha manba. B.170

Navoiy hamd qismida bu olam Allohning aniq bir rejasi asosida bunyod etilganligi haqida yozar ekan, unda hech bir narsa tasodifiy yaratilmaganligini aytadi. Shoirning fikricha, Yaratuvchi koinotdagi barcha narsa va hodisalarni o'zaro aloqador holda vujudga keltirgan, shu jihatdan olib qaralganda, tabiat son-sanoqsiz uyg'unliklarning bir butun majmuidan iborat.

ASOSIY QISM

*Uylakim dushman yarotib o'tqa suv,
Yelni ham tufroqqa aylab aduv.
Sun'idin ko'rgilki mundoq to'rt zid,
Bo'lib inson xilqatida muttahir*

Ushbu misralar orqali ifodalanadigan mazmunga falsafiy nuqtayi nazardan yondashsak, bu yerda dialektikaning “Qarama-qarshiliklar birligi va o'zaro kurash” qonuning ilmiy yoki dialektik tarzda emas balki, tasvir va ilohiy tafakkur orqali ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin. Misralarda tabiatdagi to'rt unsur olov, suv, havo va tuproqning “dushman” sifatida tasvirlanishi bu ushbu elementlar o'rtasidagi o'zaro kurashni ifoda etadi. Ushbu qarash antik davr yunon falsafasida ham o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, Aristotel va Empedokllar tomonidan ham qarama-qarshilik birligi sifatida ko'rilgan. Xossatan, Empedokl ushbu to'rt unurni qarama-qarshi bo'lsa-da mavjudotning asosiy birligi sifatida ko'radi³. Islom falsafasida ham Farobiy va Ibn Sinolar tomonidan to'rt unsur masalasi ko'tarilgan. Ibn Sino bu elementlar bir biriga nisbatan qarama-qarshi xarakterga ega bo'lsa-da, ular tabiatdagi harakat va o'zgarishning asosini tashkil etishini ta'kidlaydi. Dialektik jihatdan, Gegelning qarashlariga ko'ra qarama-qarshiliklar bu harakat va taraqqiyot manbaidir. Umuman, har bir narsa ichida o'zining inkoriga sabab bo'lgan qarama-qarshiliklarni saqlaydi. Masalan, hayot tarkibida o'lim uning ajralmas bo'lagi va aynan mana shu o'lim hayotning rivojlanishini ta'minlaydi. Yuqoridagi misralarga ko'ra ushbu to'rt unsur *inson xilqatida muttahir* deyiladi. Bu yerda muttahir so'zi arab tilidagi *vahada* fe'lidan olingan bo'lib, *bir bo'ldi, yagona bo'ldi* kabi ma'nolarni anglatadi. “Muttahir” bu ismu foil siyg'asidagi sifat bo'lib, bir butun holga kelgan, birlik hosil qilgan degan ma'nolarni anglatadi. Kontekstda esa to'rtta qarama-qarshi unurning inson tabiatida bir butun, uyg'un bo'lgan degan ma'nolarni anglatmoqda. Ya'ni inson ichida o'ziga xos qarama-qarshiliklar uyg'unligi mavjuddir. Modernistik faylasuflardan Heydegger “Inson qarama-qarshiliklar zaminida mavjud bo'lgan mavjudot” deya ataydi. Inson bu qarama-qarshiliklar qarshisida tanlov qilish orqali o'z holatini aniqlaydi.

³ D. A. Po'latova, G.M.Ro'zmatova. G'arb falsafasi tarixi, Toshkent-2018, B.517

“Lison ut-tayr” muqaddimasining keying boblarida ham tabiat va ilohiyotning bir butunligi ya’ni “Vahdat ul-vujud” nazariyasiga asoslangan konsepsiyasi ham o’zining qisqacha poetik ifodasini topgan. Navoiy fikricha, olamdagi barcha narsa, hodisa va o’zgarishlarning ijodkori bo’lgan Xudo o’zi yaratgan narsalardan tashqarida emas, balki ular bilan birga, bir butun holda mavjuddir. Shunga ko’ra ilohiyot va tabiatni bir-biridan ajratib qarash mumkin emas.⁴

Dostonda nafaqat syujet balki, obrazlar ham majozidir. Simurg’ Haqqa yetishish timsoli, Hudhud murshid, piri komil ramzi, qushlar tariqat yo’liga kirishga otlangan soliklardir. Navoiy Semurg’ni eng oliy borliq deb e’tirof etar ekan, Xudoni olamdan tashqarida emas, balki shu olamning o’zida, butun koinot va mavjudotda mujassamlashgan, har bir kimsava narsada zuhur etgan oliy moya substansiya deb tushunadi. Hudhud rahnamoligidagi qushlarning ulug’ maqsadi simurg’ga yetish ekan, bu majoziy mazmun zamirida solikning Haq vasliga yetishish uchun chekkan azob-uqubatlarini anglash mumkin.

Asar muqaddimasidagi boshqa ontologik fikrlarga nazar tashlar ekanmiz ulardagi fazo tuzilishining murakkab va ayni vaqtda sodda tahlili kishini o’ziga jalb etmay qolmaydi. “Yaratuvchi qudratli qalam bilan olamni aniq bir reja ostida bunyod qildi. U to’qqiz falakni aylanuvchi qilib yaratdi va buning sirini tushunishda idrokni o’jiz etdi. Ko’kni tun va kun bilan yarqiratib, uni quyosh va yulduzlar bilan bezadi. Unda oy go’yo osmon tirnog’iga o’xshash bo’lib, yangi oy esa o’sha tirnog’dan olingan bir bo’lakni eslatadi.” Ushbu parcha Lison ut-tayrning nasriy bayonidan olingan bo’lib, unda nafaqat tasavvufiy balki, qiziqarli falsafiy tahlilga ham arziqli material bo’la oladi. Asardagi to’qqiz falak tushunchasi ko’p qatlamli koinotning tasviridir. Falaklarning aylanishi kosmosning mukammal va abadiy harakatini anglatadi. Dunyo Yaratuvchi tomonidan shu qadar mukammal va tizimli yaratilgan-ki uni tushunish uchun inson idroki o’jizlik qiladi. Ushbu jumladan Navoiy bilish masalasiga agnostik nuqtayi nazardan yondoshganini anglash qiyin emas. Ya’ni dunyoni bilish mumkinmi degan savolga uning javobi (agar, bu jumalarga asoslanib xulosa chiqarsak) yo’q bo’lgan. Kantning “tafakkur va tajriba” nazariyasidan kelib chiqadigan bo’lsak, insonning ongi faqat o’z sezgi va tajribalari orqali tushunishga qodir degan xulosani olamiz⁵. Ammo, tasavvur va tajriba orqali olinadigan bilimning ham o’ziga xos chegaralari mavjud. Oy va uning fazalari ko’p falsafiy va ontologik talqinlarga ega. Bu yerda oy, osmonning "tirnog’i" sifatida tasvirlanadi, bu esa uning koinotdagi kichik va o’tkinchi o’rnini bildiradi. Bunday tasvirda oying yangi fazasi, uning bir

⁴ Sirojiddinov, Sh., Yusupova, D., Davlatov, O. Navoiyshunoslik (1-litob). Toshkent: “Tamaddun”, 2018, b.176

⁵ “international conference on educational innovations and applied sciences 2022/8”. Falsafa olamida imanuil kant va uning falsafiy g’oyalari, nazariyalari o’rni. Bahromova Z. b.26

bo'lagining qaytishidan iborat. Bu, o'z navbatida, koinotdagi davriy o'zgarishlar va yangilanishlarni anglatadi. Koinotdagi har bir hodisa, o'zining qarama-qarshiliklari va o'zgarishlari orqali o'sadi va rivojlanadi. Oyning yangi fazasi – bu bir davrning tugashi va yangi davrning boshlanishini anglatadi.

“Quruqlikni dengiz yuzidagi kemaga monand qilib yaratdi. Tog'lardan bu kemaga uning muvozanatini saqlab turadigan langarlar yasadi. Quyosh o'tidan suv qaynab ketmasin, degan maqsadda dengiz yuziga bug'lardan parda tortdi.” Ushbu parchaning ilk jumlasida quruqlik va dengizlar o'rtasidagi o'zaro muvozanat tasvirlanadi. Yer va suv tabiatning ikki qutbi sifatida namoyon etiladi. Keyingi jumlada Yer yuzida tog'lar ahamiyati haqida so'z yuritilinar ekan ularni “langar” deya tavsiflaydi. Ilmiy jihatdan tog'larning yer ustki qismidan tashqari yer qarida ham bir necha kilometr uzoqlikka cho'zilgan qismi mavjud ekanligi isbotlangan. Navoiyning ushbu o'xshatishi esa Qur'onda tog'larga nisbatan “qoziq” degan o'xshatish berilganligini sabab qilib olishimiz mumkin. Keyingi qismlarda yer yuzining pardasi haqida so'z yuritiladi. Bu tasvirda Yaratganning tabiiy holatlar va iqlim tizimini boshqarishdagi roli haqida so'z boradi. Quyoshning ta'siridan suvning qaynab ketmasligi, ya'ni ekosistema va tabiiy tizimlarning o'zaro uyg'unligini saqlash — bu ham fizik qonunlarga, ham ekologik tizimlarga oid fikrni keltirib chiqaradi. **James Lovelock**ning *Gaia nazariyasiga* ko'ra, Yerning ekologik tizimi bir butun, o'zini saqlaydigan va boshqaradigan bir organizm sifatida qaraladi. Tabiat o'z-o'zini saqlash va barqarorlikni ta'minlash uchun turli mexanizmlar ishlab chiqadi. Yaratganning dengiz yuziga bug'lardan parda tortish orqali quyoshning zararli ta'sirlarini oldini olishini tasvirlash, tabiatning o'zgaruvchan sharoitlarga qanday moslashishini ko'rsatadi. Bu matnning iqlim va ekologiya bilan bog'liq qismi Yaratganning "dengiz yuziga bug'lardan parda tortish" orqali tabiiy muvozanatni saqlashga intilishi, ekosistemalarning o'z-o'zini boshqarish va muvozanatni saqlashdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Keyingi qismlarda butun olam yaralishidan maqsad haqida so'z yuritilinar ekan, Navoiy bunga sabab sifatida insonni ko'rsatadi. Inson butun olam markazida turuvchi hilqat deya ta'kidlaydi. Uning antroponsetrizmga yaqin bo'lgan bu g'oyasi tasavvuf ontologiyasidagi insonning o'zni masalasidan ilhomlanilgan degan xulosaga kelish mumkin.

XULOSA

Alisher Navoiyning Lison ut-tayr dostoni umrining eng so'nggida barcha bilimlari yig'ilgan va tahlil etish qobiliyati yuksak darajaga ko'tarilgan vaqtda yozilgan bo'lib undagi obrazli syujet va qahramonlar har qanday kishini o'ziga

maftun etadi. Asarning birinchi bobidagi ontologik masalalar va epistemologik qarashlar asosan Islom falsafasi va tasavvuf ta'sirida shakllanganligini sezish mumkin. Bilish masalasidagi irratsionallik va ratsionallik orasidagi muvozanat va agnostik yondashuvlar obrazli tarzda badiiy ifoda etilgan. Borliq falsafasidagi ko'pgina tushunchalar borasida ham yuqoridagi fikrni berishimiz mumkin. Insonning borliqdagi o'rni haqida esa Navoiy to'laligicha tasavvufga tayanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1) Sirojiddinov, Sh., Yusupova, D., Davlatov, O. Navoiyshunoslik (1-litob). Toshkent: "Tamaddun", 2018, b.519
- 2) Alisher Navoiy. "Lison ut-tayr". Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991, B.176
- 3) D. A. Po'latova, G.M.Ro'zmatova. G'arb falsafasi tarixi, Toshkent-2018, B.517
- 4) "Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalari" mavzusidagi 69- ilmiy xalqaro konferensiya materiallari. Alisher Navoiy gnoseologiyasiga doir. Suvon Meli. .,200-204.b
- 5) Uralov, D., & Shodmonova, L. (2024). IBN SINONING INSON VA MA'NAVIY KAMOLOT MASALASIGA MUNOSABATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 334-338.
- 6) Uralov, D. (2024). JAMIYAT XAVFSIZLIGI VA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOG'LOM MAFKURALARNING ROLI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. *International scientific journal of Biruni*, 3(1), 222-228.
- 7) Uralov, D. (2021). TALABA-YOSHLAR ONGIDA MA'NAVIY BO'SHLIQNI TO'LDIRISHDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 962-966.
- 8) Norov Toji Omonovich. Alisher Navoiyning Borliq Falsafasi, Monografiya. Toshkent: Iqtisodiyot-2023